Madraximova Munojatxon To'lanboevna

Qo'qon davlat pedagogika instituti biologiya fani o'qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7607769

https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7607769

YOSHLARNI RUHIY VA MA'NAVIY SOG'LOM TARBIYALASHDA OILANING O'RNI

Annatatsiya: O'zbekistonning kelajak poydevori hisoblangan yoshlar, ularning mustahkam va totuv oilada tarbiya olishi, sog'lom muhitda sifatli ta'lim –tarbiya ko'rishi eng muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Ayniqsa o'smir va o'spirin yoshdagi farzandlar tarbiyasiga, ularning ruhiy holatlariga e'tiborli bo'lish, tushuna olish va to'g'ri baholash, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish bilan birga, ularni o'z oilasida o'rnini topishga va ishonchini mustahkamlashga sabab bo'ladi. Bu davrda ularning ta'lim olishlari va kasb-hunarni puxta egallay olishlari, kelgusida mustaqil hayotda ijobiy ko'nikmalarni hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar: oila, tarbiya, ta'lim, noto'liq oila, o'smirlar, o'spirinlar, tarbiyasi og'ir o'quvchilar, agressiv xulq.

Madrakhimova Munojatkhan Tolanboevna

Kokan State Pedagogical Institute biology teacher

THE IMPORTANT IMPORTANCE OF THE FAMILY IN THE CORRECT DEVELOPMENT OF YOUTH EDUCATION

Annotation : Young people, who are considered the foundation of the future of Uzbekistan, their upbringing in a strong and harmonious family, quality education in a healthy environment is the most important social factor. Paying attention to the education of children, especially teenagers and young adults, their mental state, being able to understand and correctly assess, and prevent conflicts that may occur, causes them to find a place in their family and strengthen their confidence. During this period,

their education and mastery of the profession will serve to form positive skills for independent life in the future.

Key words : family, upbringing, education, dysfunctional family, teenagers, adolescents, difficult students, aggressive behavior.

«Hech bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi», (Hadis)

Kirish: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev «Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur», deb alohida ta'kidlagan. Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat: "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim", deb yozgan edi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni otalar, onalar, ustozlar ma'naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz ochiq jamiyatda yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishimiz kerak. Lekin, milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo'lishimiz, o'zligimizni yo'qotmasligimiz shart" [1]

Farzand ota-onaga Alloh tomonidan berilgan eng buyuk ne'matdir. Farzandga to'g'ri tarbiya berish va kasb-hunarli qilish esa ota-onaga yuklatilgan mas'uliyatdir. Darxaqiqat oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning ta'minlanganligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, farzandlarning sog'lom, aklli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishishiga imkon beradi. Yashash tarzimizga e'tibor bilan nazar tashlasak vaqtning naqadar shiddat bilan o'tib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Ota-onalarning uy-ro'zg'orning moddiy ta'minoti, ijtimoiy hayot muammolari bilan band. Jadal sur'atlar bilan o'tib borayotgan shiddatli

davrda o'zingizga savol berib ko'ring shu vaqt oralig'ida farzandingizga qancha vaqt ajratdingiz? Nimalarni o'rgatdingiz? Uning muammolariga yechim topdingizmi? U bilan do'st bo'la oldingizmi? Qachon oxirgi marta farzandingiz bilan hech bo'lmasa 1 soat o'tirib dildan suhbatlashdingiz? Farzandingizni qaysi yo'nalish va bosqichda, do'stlari kimligini bilasizmi? Telefonini bemalol nazorat qila olasizmi? Agar savollarning barchasiga ijobiy javob bera olsangiz ishoning siz farzand tarbiyasiga yaxshigina mas'uliyat bilan qarayapsiz va agar buning aksi bo'lsa sizni u bilan muammolar kutadi.[2. 16-b]

O'n to'rt yillik umumiy o'rta ta'lim maktabidagi o'qituvchilik, o'n yil davomida kasb-hunar ta'limidagi rahbarlik faoliyatimda davomida juda ko'p o'quvchilar, ota-onalar bilan oilalar bilan ishlashga muvoffaq bo'ldim. Kuzatishlarimdan shunga amin bo'ldimki , sinf xonasida ta'lim olayotgan har bir o'quvchi o'zining tutishi, kayfiyati, nigohi, odobi, o'qituvchi va tengdoshlari bilan bo'lgan muomalasi, o'ziga ishonchining yuqoriligi, tashqi ta'sirlarga munosabati, hotirjamligi, ilm olishga, kasb o'rganishga bo'lgan qiziqishiga qarab unga oilasida mehr-muhabbat, ishonch berilganligi, farzand va ota-ona munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, oilada otaning o'rni borligi, ota-onaning hamfikr va hamjihatligi, moddiy ta'minlanganligi, nazorat to'g'ri yo'lga qo'yilganligini yaqol bilish mumkin. Lekin sinf xonasidagi shashti past, kayfiyati tushkun, xayoli parishon, o'ziga ishonchi kam, o'qituvchi va tengdoshlariga munosabati agressiv, yoki butinlay befarq, umidsiz, bilim olish va hunar o'rganishga e'tiborsiz o'quvchilar ham afsuski bor.Faoliyatim davomida bunday o'quvchilarning oilaviy shart-sharoitlarini o'rganilganda oilaning to'kis emasligi ya'ni ota-ona ajrashgan yoki biror bir sabab bilan birga yashamasligi, yoki oilalarda er va xotin o'rtasida samimiy, iliq munosabatlarning yo'qligi, tashki tomondan nomiga oila qurganliklari, ma'nan esa bir-birlariga nisbatan begonaday bo'lganliklari bois bu yerda o'zaro munosabatlar hamisha tarang, yuzaki bo'lib boradi. Tabiiy, bunday munosabatlar nafqat ularning o'ziga balki ularni , ayniqsa, farzandlariga faqat salbiy ta'sir etadi, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga to'g'anoq

bo’lishi ham mumkin. “Ko’cha bolalari”, “tarbiyasi og’ir bolalar”, voyaga yetmay turib jinoyatga qo’l urgan o’smirlar va o’spirinlar aksariyat holatlarda aynan shunday oilaviy muhitning qurbonlaridir. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, bolaning ijtimoiylashuvida ta’lim muassasasi pedagoglaring va ta’lim ustalaring roli va ahamiyati ham bor. Lekin ulardagi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi eng avvalo, oilaviy tarbiyaga bog’liq ekanligini, “Qush uyasida ko’rganini qiladi” maqolining mohiyatini hamma biladi. Oilalarda 3-4 nafardan farzand bo’lsa, ikki ota va ona uchun ularga yetarli e’tibor berish uchun imkoniyat kengroq, maktab yoki professional ta’lim muassasalarida guruxlardagi bolalar soni ko’p va ta’lim-tarbiya jarayoni maxsus dasturlar va aniq rejim asosida amalga oshirilgani uchun bolalarning bir tekisda rivojlanishi va kamol topishi uchun yetarli bo’lmaydi. Demak, oilaviy sotsializatsiyaning samaradorligi oila, mahalla bilan tarbiya maskanlari o’rtasida o’rnatilgan hamkorlakdagi uygunlikka bevosita bog’liq.
Bolaga ham otaning ham onaning bo’lishining zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o’zini tutishiga qarab, o’zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo’lishini tasavvur kilsa, otasiga, uning onasiga bo’lgan munosabatiga karab, o’zini kelajakda oila ko’rganda kanday oila sohibasi bo’lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, ug’il bola onasining fazilatlari, oiladagi tutimi va otasiga munosabatini idrok kilib borar ekan, kelajakda kanday qiz bilan turmush qurish mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo’lishi lozimligini bilib borsa, qiz bola otasi va uning oilada mavqeiga karab, o’zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o’rtog’iga kanday munosabatda bo’lish lozimligi to’g’risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo’lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining yetakchi tamoyili hisoblanadi. SHu bois ham bolaning tom ma’noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo’lishi uchun oila muhiti sog’lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g’amxo’r, mehrli va sadoqatli bo’lishlari o’ta muhimdir. Demak, oila

bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir[3. 57-b]

Bu davrda farzand tarbiyasi ota-onalarga yanada qiyinchilik, o'zaro muammolarni ko'payishiga sabab bo'ladi.Lekin ota-ona uning shu holatidan to'g'ri olib chiqib ketishida juda e'tiborli bo'lishi kerak. Yolg'iz ota-onalar. Ota yoki onadan biri mavjud bulgan oilalarning paydo bulishiga turli sabablar bor: ajrim tufayli bittasi koladi, nikohsiz paydo bo'lgan oila sharoiti, bunda onaning yoshi katta bo'lishi ham (yoshi o'tib borayotganligidan nikohsiz bo'lsa ham bitta farzand tug'ib, uni yolg'iz o'zi katta qiladi), juda yosh bo'lishi (tasodifan yoshlik qilib qiz maktab yoshidayoq ona bo'lib qolgan holatlar) ham mumkin.Odatda turli sabablarga ko'ra yolg'izlanib qolgan noto'lik oila a'zolari jamiyatdan ancha ayri yashashga, yolgizlikka mahkum bo'ladi, bunday oilalar moliyaviy inqirozlarga ham uchraydi. Ayrim shunday oila farzandlari juda yoshlikdan ota qilishi lozim bo'lgan yumushlarning bir qismini o'z yelkasiga olishga majbur bo'ladi. Tengqurlari orasida odamovi, gapga ham, ayrim ishlarga ham no'noq bo'lgani uchun uning do'stlari kam buladi. Asosiy muloqot ob'ekti ona bo'lib, u ham ko'pincha turmush tashvishlari bilan bolasiga yetarli e'tibor berolmaydi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar ota-onaning ayriligini juda ko'ngillariga yaqin oladi, asabiylashadigan, salga janjal ko'taradigan, onasi bilan ham, boshqa yaqinlari bilan ham kelisha olmaydigan, agressiv bo'lib qoladi. Injiq bolani yolg'iz o'zi tarbiyalashga majbur bo'lgan onalarda odatda depressiya holati kuzatiladi. Ko'pincha bunday ona o'zini omadsiz, turmush vaziyatlarining qurboniday his kiladi, ko'pincha hafa bo'lib yuradi va ich-ichidan o'zini bolalari oldida gunohkor his etadi, istiqbolda uni va farzandlarini nima kutayotganligini bilmay tashvishlanadi. Yolg'iz ota-onalarning shaxsiga qo'yilgan talablar ularning real imkoniyatlaridan ortiq bo'lib, undan katta emotsional yukni va nihoyatda ishchanlikni talab etadi. [4. 6-b]

Tarbiyaning bir necha xil usullari mavjud bo'lib, ota-onalar buni o'z farzandlarining psixo-fiziologik xususiyatlarini bilgan holda ularning yoshga doir

tarbiyalab borish bosqichlarini bilishlari talab etiladi.Noto'g'ri tarbiya qurbonlari bo'lgan tashlab kuyilgan bolalar yoki tashlandik bolalar – odatda yoshligidan na moddiy, na ma'naviy extiyojlari kondirilmagan yoki notinch va noqobil oila bolalardir. Ular nazorat va e'tiborning yukligidan turli jinoyat yullariga kirib koladi, yaxshi, samimiy e'tibor va mehrning yukligi, ta'lim muassasalarida o'quvchi shaxsi bilan to'g'ri psixologik o'rganishlar va sog'lomlashtirishlar olib borilmagnaligidan jamiyatda, odamlar orasida o'z o'rnini topishga qiynaladigan, odamovi, savodsiz bo'lib o's adi. Bu ularning kelajakda jinoyat yullariga kirib kolishiga yoki zararli odatlarga o'rganishi (giyohvand moddalar iste'mol kilish)ga sabab buladi.

Mana shunday o'smirlardan xuquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyillik o'ta yuqori bo'ladi.Tajribamda xuquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan o'quvchilarning ota-onalari bilan profilaktika ishlari olib borilganda, odatda oilada otaning yo'qligi, ota bo'lsa ham o'rni yo'qligi, ota yoki onaning uzoq muddatga chet ellarga ishlashga ketganligi, bola tog'asi yoki buvisi nazoratida ekanligi va x.z sabablar bo'lgan.

Shu o'rinda ota-onalar uchun farzand tarbiyasida o'zining samarasini bergan quyidagi tavsiyalarni aytib o'tamiz:

-Bolaga g'amxo'rlik qilish, uning hayotida ishtirok etish, uni ruhan qo'llab-quvvatlashga tayyorligingizni ko'rsatishni unutmang. O'smir yoshidagi bolalar uchun ularning ota-onalari bilan muloqot qilishlarida ularni teng huquqli deb qabul qilishlari muhim ahamiyatga ega. Shundagina farzandingiz kattalar tajribasini va donoligini hisobga olishga tayyor bo'ladilar.

-Ta'qiqlar qo'yishda, albatta uning sabablarini ko'rsatib o'ting. Bolaga nima uchun ta'qiqlar qo'yganingizni, o'ylamasdan qilingan ishlarning natijasi nimaga olib kelishini xam tushuntiring. Bola bilan birgalikda muammoning eng yaxshi yechimini toping.

-Farzandingizni boshqa bolalar bilan do'stlashishga o'rgating.Farzandingizning do'stlarini baholashda uni ota-onasining mavqei, imkoniyatiga qarab emas, farzandingizga bo'lgan munosabatiga e'tibor bering. Farzandingizni do'stlikdagi

sadoqatini rag'batlantiring.Farzandingiz o'rtoqlarini uyingizga mehmonga taklif qiling, ular bilan muloqot o'rnating. Do'stlikda rostgo'y bo'lish, manfaat ko'zlamaslik kerakligini o'rgating.

-Farzandingiz do'stiga ishonganday o'z sirlarini sizga aytsa, sizga bo'lgan ishonchini suiste'mol qilmang.

-Bolaning o'ziga ishonchsizligi sabablaridan biri oilada uning fikri qadrlanmasligidir. Farzandingiz bilan tez-tez muloqot qiling, bundadialogdan ko'proq foydalaning. Farzandlaringizni bezovta qilayotgan qo'rquv, shubhalarni eshiting va tushunishga harakat qiling. Shu tarzda agar Siz bolaga haqiqiy g'amxo'rlikni namoyon qilsangiz, u o'z muammolarini sizga ishonadi.

-Bolada rivojlantirishda kerak bo'lgan sifatlardan biri bu - optimizm. Bolalarni hayotiy ko'nikmalarga kichiklikdan o'rgatish kerak. Bolani ijobiy ruhda tarbiyalang. Unda o'ziga ishonch, optimizm kabi sifatlarni rivojlantiring. Bu butun hayoti mobaynida foydali bo'ladi. Bolani optimizmga o'rgatishdan oldin sizning o'zingiz pozitiv kayfiyatda bo'lishingiz kerak. Bolani ezgu maqsadlarga erishishga rag'batlantiring.

- Farzand tarbiyasi ulkan sabr, qunt va vaqtni talab qiladi. Bu sohada mahoratga erish uchun o'z ustingizda ishlang, farzand tarbiyasiga oid kitoblarni mutolaa qiling.[5. 78-b]

Xulosa: Demak ertaga farzandlarimiz, o'quvchilarimiz qanday inson bo'lishlarini xoxlasak, ertaga kech bo'lmasligi uchun bugundan harakat qilishimiz darkor. Zero ulamolar aytganidek "Vaqt qilichdir, bugun sen uni chopmasang, ertaga u seni chopadi" deb bejiz aytishmagan. *Hech bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi.*

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. SH.M.Mirziyoev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi asosiy ma'lumotlar. 2022yil 2 mart. Elektron resurs

2. A.Abduqodirov. N.Usmonova G.D.U.A.2022. № 1 UDK 72.815.99. 15-17 bet.

3. V.Karimova .Oila psixologiyasi. Darslik 151 bet

4.M.Xoliqova.O'smir farzandlar bilan munosabatlar strategiyasi.Ijtimoiy-pedagogik aspekt 7 bet

5.X.G.SHarafutdinova. O'smir psixologiyasi:Diagnostikasi.Psixokorrektsiya.Ilmiy risola.Termiz2017.10.25.82-bet

WORDLY
KNOWLEDGE